



# **“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI CHAMATKOR YONDASHUV”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining  
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



**“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari  
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026.   bet.

**Mas’ul muharrir:**  
**Shuhrat Sirojiddinov**  
filologiya fanlari doktori, akademik

**Tahrir hay’ati:**

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;  
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;  
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;  
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;  
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;  
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;  
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;  
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



|    |                                                                                                                           |            |
|----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
|    | Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari                                                                |            |
| 15 | <b>Sadoqat RAJABOVA,</b><br>Ishtixonda yashovchi etnik arablar                                                            | <b>246</b> |
| 16 | <b>Umarjon QODIROV,</b><br>Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan                                  | <b>249</b> |
| 17 | <b>Gulchexra AHATOVA,</b><br>Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili                                 | <b>253</b> |
| 18 | <b>Hayotxon SOTIMOVA,</b><br>Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi | <b>260</b> |
| 19 | <b>Ramazon ORTIQOV,</b><br>“Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini                         | <b>264</b> |

### 3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

|    |                                                                                                                                                                             |            |
|----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| 1  | <b>Hamidulla DADABOYEV,</b><br>XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470         | <b>271</b> |
| 2  | <b>Nishonboy HUSANOV,</b><br>“Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648                   | 276        |
| 3  | <b>Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA</b><br>Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi                                                 | 281        |
| 5  | <b>Muhayyo HAKIMOVA,</b><br>Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287                                            | 284        |
| 6  | <b>Nilufar ABDURAXMONOVA,</b><br><b>Nasima ABDULLAYEVA,</b><br>Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723 | 292        |
| 7  | <b>Zamira DJURABAYEVA,</b><br>Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar                                                                                     | 297        |
| 8  | <b>Muyassar XOLOVA,</b><br>Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi                                                                                            | 300        |
| 9  | <b>Anvarbek TURDIALIYEV,</b><br>Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari                                                            | 304        |
| 10 | <b>Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV</b><br>Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)                                           | 313        |
| 11 | <b>Feruza AMINOVA,</b><br>Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi                                                        | 316        |
| 12 | <b>Oynisa XOJIYEVA,</b><br>O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati                                                  | 320        |
| 13 | <b>Dildora AMIROVA,</b><br>“Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi                                                                     | 325        |
| 14 | <b>Kamola NOSIROVA,</b><br>Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region                                                                      | 328        |

## DIALEKTAL BIRLIKLARNING RAQAMLI KORPUS MODELINI YARATISH MASALALARI

### ISSUES IN DEVELOPING A DIGITAL CORPUS MODEL OF DIALECTAL UNITS

**Nilufar ABDURAXMONOVA,**

*O'zMU professori, filologiya fanlari doktori*

**Nasima ABDULLAYEVA,**

*O'zMU magistranti*

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723

**Annotation.** *This article discusses the issues of developing a digital model of dialectal units in corpus linguistics, enriching the dialectal subcorpus of the Uzbek language corpus with materials representing the dialects of different regions of Uzbekistan and, in particular, developing a linguistic database based on the Qarshi city dialect.*

**Key words:** *corpus, dialectal units, linguistic annotation, Kharshi city dialect, transcription, metadata.*

Jahon miqyosida korpus lingvistikasi tilshunoslikning zamonaviy va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida jadal rivojlanmoqda. Dunyo tilshunosligida milliy korpuslar nafaqat adabiy til birliklarini, balki tilning hududiy va ijtimoiy variantlarini ham qamrab olish orqali lingvistik tadqiqotlarning muhim manbasiga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan o'zbek tili korpusini dialektal materiallar bilan boyitish masalasi tilimiz rivoji va uni qayta ishlashda dolzarb ahamiyatga ega. Chunki shevalar xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, hududiy til xususiyatlari hamda milliy til taraqqiyotining muhim qatlamini tashkil etadi.

“Bugungi kunda korpusning imkoniyatlari shu darajaga yetdiki, ushbu sohada erishilgan yutuqlardan nafaqat NLP sohasi yoki kompyuter lingvistikasi, balki tilga o'qitishning metodika va pedagogika sohalari, diskurs tahlil, mashina tarjima va lingvistikaning o'nlab sohalari (sotsiolingvistika, gendershunoslik, psixolingvistika va h.k.) unumli foydalanib, sohaga doir ijobiy natijalarga erishib kelinmoqda” [Abduraxmonova 2023:29]. Lingvistik annotatsiyalangan elektron korpuslar, xususan dialektal korpuslar yordamida avtomatik nutq tanish texnologiyalarini joriy qilish, avtomatik tarjima tizimlari, tezaurus hamda elektron lug'at materiallarini tashkil qilish korpus tilshunosligining asosiy vazifalari hisoblanmoqda.

O'zbek tilining elektron korpuslarini yaratish va takomillashtirish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, dialektal birliklarni tizimli ravishda korpus bazasiga integratsiyalash, ularni lingvistik jihatdan tavsiflash va annotatsiyalash borasida qator tadqiqotlar istiqbolini kutib turibdi. Ayniqsa, sheva birliklarining fonetik, leksik va morfologik xususiyatlarini elektron bazada aks ettirish globallashtirish va assimilyatsiya kuchli ta'sir ko'rsatayotgan autentik tillarni saqlab qolishda yordam beradi. Jahon korpusshunoslik metodologiyalari asosida o'zbek tilining dialektal lingvistik bazasini yaratishda qator tajribalar amalga oshirib kelinmoqda. Surxandaryo shevalari yuzasidan tadqiqotchilar M. Xolova [Холова 2022] va A. Turdialiyeu [Turdialiyeu 2023] tadqiqotlari korpusga asoslanadi. Xorazm shevasining o'g'uz lahjasiga xos so'z shakllarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar to'plami (dataset) va o'guz shevalari korpusi yordamida shevaga xos leksik birliklarni avtomatik tarzda adabiy ekvivalentlariga almashtirish imkoniyatini beruvchi qoida-asosidagi (rule-oriented) algoritmik yondashuvlar tadqiq qilinmoqda. [Abdurakhmonova, Astanova, Akhmedov, Mengliev, Ibragimov, Abdullayev, 2025]. Ushbu yondashuv asosida o'zbek tilining uch asosiy lahjalari lug'ati va algoritmi asosida matnning standartlashtirish masalalari ham korpus asosida o'rganilgan. [Mengliev, Abdurakhmonova,

Barakhnin, Shirinova, Iskandarova, Otemisov, 2024]. Shu singari yurtimizning har bir hududi shevalarini raqamli korpus modeli asosida o'rganish va o'zbek shevalari korpusini yaratish bizning ham tadqiqotimiz dolzarbligini ta'minlaydi.

Qashqadaryo viloyati shevasi yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishimizda Qarshi shahri shevasi ilk bora korpus uchun areologik o'rganildi va hudud dialektining raqamli korpus modeli yaratilib, lingvistik baza tashkil qilindi. Hudud shevasini ilk bor dialektolog olim Y. D. Polivanov o'rganadi va 1928-yilda bu xususda maqola chop etadi [Поливанов 1928]. Keyinchalik Qashqadaryo shevalari bir qator olimlarimiz tomonidan viloyat hududini 3 ga, ya'ni yuqori, o'rta va quyi Qashqadaryo shevalariga bo'lib izchil o'rganilgan. Quyi Qashqadaryo shevalari, xususan Qarshi shahri tadqiqida A'zam Shermatovning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Qarshi shevasi bo'yicha mavjud adabiyotlar hududning leksik va fonetik o'ziga xosliklarini yaxshi yoritgan, biroq ularning ko'plari metodologik jihatdan kichik hajmlarga asoslangan. Bizning ishimiz Qarshi shahri dialektal bazasini o'zbek tili korpusida kengroq yoritish va dialektal tadqiqotlar uchun asos vazifasini bajarishga xizmat qildirishdir. Buning uchun shaharning asosan eski mahallalari bo'lmish Naxshab, Navro'z, Zog'za, Xudoyzod, Roguzar, Xontepa kabi mahallalarida yashovchi turli yosh guruhlari, asosan keksa vakillaridan shahar dialektini aks ettiruvchi audiomateriallar to'plandi. Qarshi tumaniga qarashli Charog'il qishlog'idan ham ba'zi audiomateriallar yig'ildi va shahar dialekti bo'lmish qarluq lahjasi va qishloq dialektlariga asos qipchoq lahjalarining ba'zi farqli va umumiy jihatlari qiyoslandi. Shahar va qishloq shevalaridagi ayrim mushtaraklik tahlil qilindi.

*Asosiy fonetik xususiyatlari:* Unlilar 6-7 tadan oshmaydi, ya'ni *i, e, ä, o, ā, u* tovushlari va chuqur til orqa undoshlari bilan qo'llanuvchi *a* tovushi. Korpus uchun elektron bazaga yig'ilgan nutqlardagi ba'zi xarakterli fonetik xususiyatlar:

*l* undoshi bilan tugagan so'zlarga *d* undoshli affiks qo'shilganda hamda zamon va shaxs-son qo'shimchasi o'zakka qo'shilganda progressiv assimilyatsiya yuz beradi:

*oldim < ällim, keldim < kellim, aldab < allap, bo'ldi < bolli;*

Ba'zi so'zlarda unlilar almashinuvi, ya'ni metateza hodisasini ko'ramiz:

*orqa < arqa, oyoq < ajāq, qachon < qačan, dugona < dugänä, ora-ora < ärä-ärä, somsa < sämsä;*

*q → g* o'tishi: *qozon-tovoq < qazān-tavāy, echki-uloq < ečki-ulāy, yong'oq < jängāy* (ushbu so'zda undoshlarning regressiv assimilyatsiyasi hodisasi ham mavjud);

So'z formalarining torayish (tortilish) holatlari ham kuzatildi:

*bu yoqqa < beqqa, shu yoqqa < šeqqa, o'sha yoqqa < ošeqqa, bu yog'i < bayi, u yog'ini < ejqini.*

*Morfologik xususiyatlari:* Qarshi shahar shevasida jo'nalish va o'rin-payt kelishigi qo'shimchalari bir xil ifodalanadi (*men shuyerda < män šijergä, shu yerga kel < šijergä kel*). Ko'plik qo'shimchasi *-lär, -lä, -ä* (*ujlä, kitäplä, qälämlä*) shaklida qo'llaniladi, *-lär* tarzida faqatgina o'zidan so'ng egalik qo'shimchasi olganda, qolgan barcha holatlarda *-lä, -ä* tarzida qo'llaniladi (*ko'chalar < köčälä, ko'chalari < köčäläri*). Dialektolog A.Shermatov 1-shaxs ko'plik olmoshlari shahar shevalarida *bizlä, bizläni, bizläyä* tarzida, qishloq shevalarida *esa bizä, bizäni, sizlä, sizläni, sizläjä* shaklida kelishini ta'kidlaydi [Шерматов А 1978:26].

*Leksik xususiyatlari:* Qarshi shahar va Qarshi tumani qishloqlari shevasiga e'tibor bersak, qarluq va qipchoq lahjalarining bir-biriga ta'siri, o'xshash va farqli tomonlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Asosiy o'xshashliklar tojik tilidan o'zlashgan so'zlarda qayd etilishi, faqatgina lahjaga xos fonetik o'zgarishlarga uchraganini kuzatish mumkin. Quyidagi jadvalda qarluq lahjasi asosidagi Qarshi shahri shevasi va Qarshi tumani tarkibiga kiruvchi qipchoq lahjasi asosidagi Charog'il qishlog'i shevalaridagi ayrim so'zlar keltiriladi:

| Adabiy til | Qarshi shahri shevasi | Qarshi tumani<br>Charog'il qishlog'i |
|------------|-----------------------|--------------------------------------|
|------------|-----------------------|--------------------------------------|

|                               |                 |                 |
|-------------------------------|-----------------|-----------------|
| sho‘rdanak                    | donasho‘rey     | sho‘rdanak      |
| o‘rik                         | zardoli         | zoldari         |
| qornini yerga<br>berib yotish | dustomon        | dustaman        |
| bola-chaqa                    | bala-baqra      | bachcha-kachcha |
| ehtiyot bo‘l                  | bohorom bo‘l    | hazir bo‘l      |
| husnbuzar                     | do‘mmol/donacha | danacha         |
| hech/hech nima                | domana          | dovmana         |
| tentak                        | devona          | tentak          |
| mahmadona                     | bodi            | bodi            |
| ozroq/picha                   | bichchi         | pichchi         |
| nimcha                        | kulta/guppi     | nimcha/kultacha |

“Dialekt korpuslari umumtil korpuslaridan farqli ravishda tabiiy og‘zaki nutqni maksimal darajada autentik shaklda saqlashni ko‘zda tutadi. Shu sababli audio yozuvlar, ularning fonetik transkripsiyasi va shevaga xos fonologik xususiyatlarni aks ettiruvchi belgilash tizimi alohida ahamiyatga ega”. [Beal 2010] Shuni inobatga olgan holda hudud dialektining audio va matn korpusini yaratishda tabiiy nutq namunalari tizimli ravishda yig‘ildi, nutq segmentatsiyalandi va ko‘p qatlamli annotatsiya (multi-layer annotation) amalga oshirildi. Bunda transkripsiya orfografik va fonetik darajani o‘z ichiga oladi. Korpusning konseptual modeli quyidagi bosqichlardan iborat:

- material yig‘ish;
- audio yozuvlarni texnik qayta ishlash;
- transkripsiyalash;
- lingvistik belgilash (leksik);
- metama’lumotlarni kiritish;
- ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

Har bir matn va audio faylga yagona identifikatsion kod berildi. Kod tuzilmasi hudud nomi, istiqomat qilayotgan mahallasi, jinsi, yoshi va urug‘i kabi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bunday tizim korpus materiallarini tizimli saqlash va keyinchalik filtrlash imkonini yaratadi. Transkripsiyalashda esa Qarshi shevasining fonetik xususiyatlarini to‘liq aks ettirish maqsadida ikki darajali tizim qo‘llanildi:


1. Orfografik (soddalashtirilgan) transkripsiya;
2. Fonetik (aniqlashtirilgan) transkripsiya.

Orfografik transkripsiyada har bir audio nutq eshitilgani kabi odatdagi o‘zbek tili alifbosida yozib chiqildi. Fonetik transkripsiyada esa bugungi kundagi dialektik tadqiqotlar uchun dialektolog S.Ashurboyev tomonidan tavsiya qilingan, alohida yunikodga ega transkripsiyadan foydalanildi. Transkripsiya jarayonida nutqning tabiiyligi saqlanib, grammatik yoki stilistik “tuzatishlar” kiritilmadi. Dialektal shakllar asl holida berildi.

Dialektal transkripsiyani avtomatlashtirish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etildi:

**Kirish ma’lumoti → Normalizatsiya → Moslik qoidalari → Transkripsiya → Post-protssessing → Natija**

Bu yerda asosiy yadro — **qoida asosidagi (rule-based) transformatsiya tizimi hisoblanib, uning strukturaviy algoritmik tuzilmasi quyidagicha:**



Korpus uchun ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Korpus uchun lingvistik baza .xlsx formatidagi faylda tayyorlanib, unda sheva, lahja, so'zning adabiy tildagi shakli, adabiy orfografiyadagi shakli, transkripsiyasi, ularning txt fayldagi belgilangan nomi, informantning manzili, yoshi, ma'lumoti va kasbi, qolaversa qaysi urug'ga mansubligi kabi ma'lumotlar aks ettirildi:

| 2    |      |              |                     |                 |         | Metama'lumot              |                |                    |        |           |
|------|------|--------------|---------------------|-----------------|---------|---------------------------|----------------|--------------------|--------|-----------|
| 3    | T/r  | Adabiy tilda | Shevada (talaffuzi) | Transkripsiyasi | Lahjasi | hudud                     | yoshi va jinsi | ma'lumoti va kasbi | Urug'i | Fayl(txt) |
| 4    |      |              |                     |                 |         |                           |                |                    |        |           |
| 4887 | 4883 | iye          | iye                 | ije             | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |
| 4888 | 4884 | men          | man                 | mān             | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |
| 4889 | 4885 | qayerdan     | qaydan              | qajdan          | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |
| 4890 | 4886 | bilay        | biley               | bilej           | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |
| 4891 | 4887 | biz          | biza                | bizā            | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |
| 4892 | 4888 | bozorlik     | bozorli             | bāzārli         | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |
| 4893 | 4889 | qilib        | qijp                | qijp            | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |
| 4894 | 4890 | kelsak       | kisey               | kisej           | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |
| 4895 | 4891 | bular ham    | bulayam             | bulājām         | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |
| 4896 | 4892 | bozorlik     | bozorli             | bāzārli         | qarluq  | Qarshi shahri Xontepa mfy | 32 yosh, ayol  | o'rta, uy bekasi   |        | 111-txt   |

Qarshi shahri shevasiga oid 5000 dan oshiq so'zning adabiy til bilan muqobil shakli lug'ati, transkripsiya matnlari va audioyozuvlari jamlangan holatda 121 ta fayl hujjati bilan o'zbek tili korpusining dialektal subkorpusiga joylashtirildi va qidiruv amalga oshirish maydonida shevaga oid so'zlarning transkripsiyasi, audio yozuvi va informantning metama'lumotini ko'rish imkoniyati yaratildi. Quyidagi rasmda korpus qidiruv maydonidagi ma'lum so'zning nechta hujjatda uchrashi statistikasi berilgan:

🔍

13 ta hujjatda 69 ta so'z uchradi.

|        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |   |
|--------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|
| qarluq | <p>hā katta toj bolādi čāllādi bolādi čaqalāq korgāndān kejin beši berdi ānā šunaqala bolādi čāllādi kelinni manāv kelin qib ketgāndān kejin ātānasi čaqiradi čāllādi qilatta jānā qizini čaqiradi ātānalarī āldijā sarpājla qojādi kijim keče čaqalāyli bogāndān kejin bešijlā ālibārišadi čaqalāqqa ... Ko'proq...</p> <div style="display: flex; align-items: center; margin-top: 5px;"> <span style="font-size: 0.8em;">▶ 0:00 / 0:31</span> <div style="flex-grow: 1; border: 1px solid #ccc; background: linear-gradient(to right, #2c3e50 40%, #95a5a6 40% 60%, #95a5a6 60% 80%, #2c3e50 80%);"></div> <span style="font-size: 0.8em;">🔊 ⋮</span> </div> <p style="text-align: right; font-size: 0.8em; color: #2c3e50;">Yuklab olish</p> | 👁 |
| qarluq | <p>toj šudājām jaxši otdi toj možizā tojxānasida boldi dā-ā šunaqala boldi šudājām jaxši fājzli toj boldi ojin mazzā qilib ojnādik hāmmā mindej kormāgān sinfdāšlarimdi kordim ānčā jillādān beri dāže nečči jillādān beri ošā nimādā bitirgān jilimizdān beri kormāgān sinfdāšlarimni kordim</p> <div style="display: flex; align-items: center; margin-top: 5px;"> <span style="font-size: 0.8em;">▶ 0:00 / 0:21</span> <div style="flex-grow: 1; border: 1px solid #ccc; background: linear-gradient(to right, #2c3e50 40%, #95a5a6 40% 60%, #95a5a6 60% 80%, #2c3e50 80%);"></div> <span style="font-size: 0.8em;">🔊 ⋮</span> </div> <p style="text-align: right; font-size: 0.8em; color: #2c3e50;">Yuklab olish</p>                        | 👁 |
| qarluq | <p>bop qāliši mumkun dānasi hāzi tor miñ beš miñ sātjapmiz čunki uč jārim miñ āljamiz-da tor miñ beš miñ</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | 👁 |

Respublikamiz hududida mavjud bo‘lgan turli shevalarni tizimli ravishda yig‘ish va ularni zamonaviy korpus talablari asosida tavsiflash kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim poydevor yaratadi. Bu nafaqat dialektologiya, balki leksikografiya, fonetika, morfologiya va tabiiy tillarni qayta ishlash bosqichi, turli innovatsion platformalar yaratishda ham yangi ilmiy natijalarga erishish imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abduraxmonova N.Z. Korpus lingvistikasi – GlobeEdit, 2023. – B. 29.
2. Холова М. Ўзбек миллий шевалари корпуси тадқиқи (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида). Монография – Термиз: ТерДУ НММ, 2022.
3. Turdaliyev A.X. Denov shevalarini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish. Filologiya bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – T., 2023.
4. Mengliev D. B., Abdurakhmonova N., Hayitbayeva D., Barakhnin V. B. Automating the Transition from Dialectal to Literary Forms in Uzbek Language Texts: An Algorithmic Perspective // Proceedings of the IEEE XVI International Scientific and Technical Conference “Actual Problems of Electronic Instrument Engineering (APEIE)”. – N., Russian Federation, 2023 – P. 1440–1443.
5. Mengliev D. B., Abdurakhmonova N. Z., Barakhnin V. B., Shirinova R. K., Iskandarova A. R., Otemisov A. Z. Building a Comprehensive Uzbek Lexicon: Bridging Dialects for Text Standardization // Proceedings of the 2024 IEEE 25th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM). – 2024. – P. 2440–2444.
6. Поливанов Е. Д. Образцы не-сингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка // Докл. АН, [Серия] В. – Л., 1928.: № 5, С. 92–96.
7. Шерматов А. Узбекские народные говоры Кашкадаринской области – Т., 1978. – С. 26.
8. Beal J. C. An Introduction to Regional Englishes: Dialect Variation in England – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2010.

